



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI
RIVOJLANTIRISH QO'MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI NUKUS
FILIALI**

**"VETERINARIYA MEDITSINASI VA CHORVACHILIKDAGI DOLZARB
MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI" mavzusidagi xalqaro
ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari**

TO'PLAMI

13-noyabr 2025-yil

СБОРНИК материалов

**международной научно и научно-технической конференции на тему
"АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ И
ЖИВОТНОВОДСТВА И ИХ РЕШЕНИЯ"**

13 ноября, 2025 г

**International scientific and scientific-technical conference
"ACTUAL PROBLEMS OF VETERINARY MEDICINE AND LIVESTOCK
AND THEIR SOLUTIONS"**

November 13, 2025

NUKUS-2025

“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”
Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari [Matn]: to‘plam / Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali. – Nukus: “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025. – 389 b.

Anjuman tashkiliy qo‘mitasi

Tashkiliy qo‘mita raisi: Esimbetov Adilbay Tlepovich, b.f.d., professor;

Tashkiliy qo‘mita raisi muovini: Avezimbetov Shavkat Dosumbetovich, v.f.n.;

Tashkiliy qo‘mita kotibi: Rozumbetov Kenjabek Umar og‘li, b.f.f.d.;

D. Bazarbayeva – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida katta o‘qituvchisi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Tashkiliy qo‘mita a‘zolari:

Sh. Jabbarov – O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, veterinariya fanlari doktori, professor.

X. Yunusov – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori, biologiya fanlari doktori, professor.

M. Y. Karpuxin – Ural davlat agrar universitetining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, agrar fanlar doktori, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

N. G. Malkov – N. F. Vereshagin nomidagi Vologda davlat sutchilik akademiyasi rektori, texnika fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

A. Abdurasulov – Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh davlat universiteti “Veterinariya meditsinasi va biotexnologiyasi” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, professor. (Qirg‘iziston Respublikasi)

R. Miqtibayeva – Qozog‘iston milliy agrar tadqiqot universiteti “Mikrobiologiya va virusologiya” kafedrasida professori, veterinariya fanlari nomzodi. (Qozog‘iston Respublikasi)

S. Mirzakulov – Olmaota texnologiya universiteti “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasida professori, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent. (Qozog‘iston Respublikasi)

Q. Atanazarov – O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

A. Mambetnazarov – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent.

A. Kaniyazov – “Veterinariya va zootexnologiya” fakulteti dekani, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

X. Mamatov – “Zootexnologiya” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

R. Turg‘anbayev – “Zootexnologiya” kafedrasida professori, agrar fanlar doktori

A. Kamalova – “Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi” kafedrasida mudiri, veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

P. Xojalepesov – “Iqtisodiyot va gumanitar fanlar” kafedrasida mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

R. Rzaev – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida mudiri, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug‘i bilan oliy ta‘lim tashkilotlari hamda ilmiy tashkilotlarda 2025-yilda o‘tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxati 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan – 2025-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi asosida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialida 2025-yil 13-noyabr kuni – **“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”** mavzusida o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari asosida tuzilgan.

Konferensiyada, veterinariya sohasida faoliyat olib borayotgan universitet va filialarning professor-o‘qituvchilari, ilmiy markazlarning va insitutlarning ilmiy xodimlari, doktorantlar, magistrantlar, iqtidorli yosh tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot ishlariga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan

To‘plamga kiritilgan maqolalar materiallarining to‘g‘riligi va haqqoniyligiga mualliflar mas‘ul hisoblanadi.

© Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, 2025

© “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI BARQAROR RIVOJLANISHIDA ER OSTI SUV SIFATI MUAMMOLAR

Atanazarov K.M.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali*

Kirish. Suv resurslari – insoniyat hayoti, qishloq va sanoat faoliyati hamda ekologik muvozanat uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Barqaror rivojlanish tamoyillari doirasida suv sifati va undan foydalanish samaradorligi hududiy jihatdan muhim omil sanaladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi geografik va iqlim sharoitlari hamda suv ta‘minoti tizimlari bilan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, u yerda suv sifati bilan bog‘liq bir qator dolzarb muammolar mavjud. Shuning uchun ham suv sifati masalalari respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik rivojlanishida katta o‘rin egallaydi. Shu sababli mazkur maqolada hududdagi suv sifati bilan bog‘liq muammolar tahlil qilindi, ularning sabablari va barqaror rivojlanish nuqtai nazaridan takliflar beramiz.

Bu ilmiy ishimizda Qoraqalpog‘iston Respublikadagi suv sifati masalalariga oid adabiyotlar tahlili qilindi, hududiy statistik ma‘lumotlar, sohaga oid hisobotlari va amaliy olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari materiyallaridan foydalangan holda tahliliy ma‘lumotlar berildi. Xususan, ichimlik suvi bilan ta‘minlanish darajalari va sifatiga oid ma‘lumotlar tahlil qilindi, ekologik muhitdagi o‘zgarishlar, suv resurslarining kamayishi va ifloslanish tendentsiyalari o‘rganildi.

Suv xo‘jaligi infratuzilmasi hamda sug‘orish-melioratsiya tizimlaridagi muammolarni aniqlash uchun hisobot va ommaviy axborot vositalari ma‘lumotlari ishlatildi. Tahliliy natijalar asosida barqaror rivojlanish kontekstida yechimlar bo‘yicha takliflar berildi.

Tahliliy natijalar asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasida ichimlik suvi bilan ta‘minlanish darajasi 2014-yilda ichimlik suvi bilan ta‘minlash darajasi umumiy aholida - 64,6 % bo‘lgan, qishloq joylarida esa - 54,5 %, 2025-yil iyun oyi holatiga respublika bo‘yicha markazlashgan ichimlik suvi bilan ta‘minlanganlik darajasi 74,2% etkan.

Suv sifati jihatidan bir necha tumanlarda (masalan, Amudaryo tumani, Xo‘jayli tumani, Moynaq tumani) ichimlik suvi bilan ta‘minlash darajasi ancha pastligi qayd etilgan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi ekologik jihatdan murakkab hududlardan hisoblanib: suv resurslari kamayishi, ifloslanish va sho‘rlanish jarayonlari mavjud. Suv xo‘jaligi infratuzilmasi (kanallar, omborlar, tozalash stansiyalari) eskirgan, suv taqsimoti va sug‘orish tizimlaridagi samaradorlik past darajada. Masalan, fermerlar uchun suv xizmatlari sifatini oshirish bo‘yicha loyiha amalga oshirilmoqda. Asosan ichimlik suvi sifati nazorat qilinayotgan bo‘lsa ham, ayrim tumanlarda ichimlik suv sifati xavf tug‘dirishi mumkin.

Respublikamizning barqaror rivojlanishda suv sifati masalalarida bir necha muhim jihatlar ko‘rsatish muhim, bulardan:

Resurslar va atrof-muhit omillari. Qoraqalpog‘iston hududi iqlim jihatdan quruq va bug‘lanish darajasi yuqori bo‘lgan mintqa. Shu bilan birga, suvni qayta to‘plash va taqsimlash tizimlari yetarli emas. Bu esa suv resurslarining kamayishi va sifati yomonlashishiga olib kelmoqda.

Infratuzilma va boshqaruv. Sug‘orish tarmoqlari, kanal va suv havzalari eskirilganligi suv miqdorlaridan samaradorsiz foydalanishiga, chuchuk suv miqdorlarining yo‘qotilishiga va ifloslanish xavfini oshirishga sabab bo‘lmoqda. Buning oldini olish maqsadida hozirda kanalning betonga o‘tkazilishi va zamonaviy materiallar joriy etilishi yo‘lga qo‘yilmoqda.

Sog‘liq va ijtimoiy jihatlar. Ichimlik suvi bilan ta‘minlanishdagi past darajasi va suv sifati nazorati zaifligi aholining salomatligi uchun xavf tug‘diradi. Bundan tashqari, sug‘orish uchun

foydalaniladigan suvning sifati pasayishi esa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham ta'sir qiladi, bu esa oziq-ovqat xavfsizligi va barqaror rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Barqaror rivojlanish jihatlar Suv sifati va undan foydalanish samaradorligi barqaror rivojlanishning muhim tarkibiy jihatidir. Agar suv sifati va ta'minoti holati yaxshilanishi ta'minlansa, bu hududning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga ham ijobiy turtki bo'ladi. Aks holda, resurslarning noto'g'ri boshqarilishi rivojlanishni tormozlashi mumkin.

Yuqoridagi keltirilganlarni oldini olish chora-tadbirlarini ilmiy jihatdan bartaraf etish uchun quyidagi takliflarni keltirish mumkin:

Ichimlik suvi ta'minoti va sifat nazoratini yanada kuchaytirish: zamonaviy laboratoriya uskunalari, online kuzatuv tizimlari joriy etilsin.

Sug'orish va melioratsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish: er usti suvlari kanal va suv havzalarini ta'mirlash, yo'qotishlarni kamaytirish, suvni tozalash va qayta ishlatish imkoniyatlari yaratilishi lozim.

Suvni tejovchi agro-texnologiyalar, suv narxini ichki iqlim sharoitlari bilan moslashtirish hamda aholining suvni tejashga rag'batlantirilishini ta'minlash.

Ekologik iqlim o'zgarishlari sharoitida suv resurslarini boshqarish strategiyasini yangilash va hududiy xususiyatlarga moslashtirish.

Boshqaruv tizimlarini takomillashtirish: hududiy monitoring, ma'lumot almashinuvi, xalqaro tajriba va hamkorlikni kengaytirish.

Xulosa. Qoraqalpog'iston Respublikasida suv sifati va suvdan foydalanish samaradorligi bir qator muammolar mavjud bo'lib bu muammolar geografik-ekologik sharoitlar, infratuzilma eskirganligi, boshqaruv tizimlaridagi kamchiliklar hamda ijtimoiy-sog'liq jihatdan xavf tug'dirmoqda. Respublikaning barqaror rivojlanish maqsadlari nuqtai nazaridan, suv resurslaridan oqilona foydalanish, ichimlik sifatsiz suv muammolarini bartaraf etish, sug'orish va melioratsiya tizimlarini yangilash, boshqaruv va nazorat tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida keltirilgan takliflar amalga oshirilsa, hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va ekologik barqarorligi yaxshilanishi kutiladi.

Foydalanilgan adabyotlar

1. Абдиров Ч.А. и др. «Качество поверхностных вод низовьев Амударьи в условиях зарегулирования речного стока» Ташкент ФАН 1996 124 с.
2. Атаназаров К.М. К вопросу системы управления качеством воды водных экосистем Южного Приаралья в связи с усилением влияния антропогенных факторов. /В сб.тез.Межд.научн.практ.конф. «Проблемы рационального использования и охрана биоресурсов Южного Приаралья» Нукус, 2010. 65-66 с.
3. Atanazarov K., Davletmuratova V., Kidirbaeva A. GIS technologies for assessing hydroecological state of rivers in the Aral sea basin. -/BIO Web of Conferences 113, 04011 (2024) <https://doi.org/10.1051/bioconf/202411304011> INTERAGROMASH, 2024.
4. Гидрогеологическая и экологическая программа. ЮНЕСКО, Париж 2000. 76 с.
5. Shixiyev R.M. "Qoraqalpog'iston Respublikasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini joylashtirish va ixtisoslashtirishda suv resurslaridan samarali foydalanish muammolari". *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*. DOI:10.5281/zenodo.16777609.
6. Qoraqalpog'iston ekologik muommolari. azkurs.org
7. Suv muammosi o'zbekiston respublikasi hududida: analiz va yechimlar. Modern Education and Development, 28(6), 188-190. [Научные журналы](#)

8. Мадрахимов, Ш. Н. (2024). Сут-гўшт йўналишидаги қорамол зотлар маҳсулдорлигини оширишнинг селекцион-технологик асаслари. *Автореферат. Қишлоқ хўжалиги фанлари доктори*, 72.
9. Мадрахимов, Ш. Н., & Рузибоев, Н. Р. (2022). Саноат асосида чатиштиришдан олинган F1 дурагай авлодларининг усиш курсаткичлари. *Ж. "Chorvachilik va naslchilik ishi"*, 4, 26.
10. Мамадуллаев, Г., Мадрахимов, Ш., Бойбулов, Б., & Амиров, Ш. (2023). СПРАВОЧНЫЕ показатели крови лошадей карабаирской породы. in *Library*, 4(4), 34-36.
11. Madrahimov, S. N. (2023). The effect of feeding on the expression of the hereditary opportunities of monbelyard bulis belonging to different genotypes.
12. Мадрахимов, Ш. Н. (2024). Сут-гўшт йўналишидаги қорамол зотлар маҳсулдорлигини оширишнинг селекцион-технологик асаслари. *Автореферат. Қишлоқ хўжалиги фанлари доктори*, 72.
13. Мадрахимов, Ш. Н., & Рузибоев, Н. Р. (2022). Саноат асосида чатиштиришдан олинган F1 дурагай авлодларининг усиш курсаткичлари. *Ж. "Chorvachilik va naslchilik ishi"*, 4, 26.
14. Мамадуллаев, Г., Мадрахимов, Ш., Бойбулов, Б., & Амиров, Ш. (2023). СПРАВОЧНЫЕ показатели крови лошадей карабаирской породы. in *Library*, 4(4), 34-36.
15. Madrahimov, S. N. (2023). The effect of feeding on the expression of the hereditary opportunities of monbelyard bulis belonging to different genotypes.
16. Madrahimov, S., & Roziboev, N. (2023). Growth and development of F1 hybrid progenies of Schwitz cows using beef breeds. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 371, p. 01003). EDP Sciences.

СУТДОР ҚОРАМОЛЧИЛИКДА ЭМБРИОНЛАРНИ КЎЧИРИБ ЎТКАЗИШ УСУЛИДАН Фойдаланиш самарадорлиги (таҳлилий)

Айтжанов Р.Т., Есимбетов А.Т., Мадрахимов Ш.Н.

*Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университети
Нукус филиали*

Кириш. Ҳозирги боскичда сут маҳсулдорлик йўналишидаги қорамолларни такомиллаштиришнинг асосий усулларида бири сунъий қочириш ҳисобланади. Бироқ, у юқори маҳсулдорлик кўрсаткичларига эга бўлган ҳайвонларни етарли даражада тезлаштиришни таъминла олмайди.

Қорамолларни кўпайтириш ва селекциялашда биотехнология алоҳида аҳамиятга эга. Қорамол бир ҳомилали сутэмизувчилар турига киради. Шунинг учун битта сигирдан йилига битта бузоқ олиш мумкин, унинг туҳумдониди эса жуда катта генетик захира эга бўлган юз минглаб жинсий хужайралар (ооцитлар) мавжуд.

Чорва молларини тезроқ кўпайтириш муаммосини тубдан ҳал қилиш серпуштликни оширишнинг ноанъанавий усулларида ўтишдан иборат. Бунинг учун репродуктив функцияни чуқур ўрганиш, уни бошқариш, шунингдек, эмбрионлар, жинсий ва соматик хужайралар билан манипуляция усулларида такомиллаштириш асосида ишлаб чиқилган бир қатор биотехник усуллар қўлланилади. Истиқболда биотехнология юқори маҳсулдор ҳайвонлар ва бутун популяцияларни жадал кўпайтиришнинг асоси сифатида қаралади.

Трансплантацияни амалиётда қўллаш натижалари шуни кўрсатадики, бу усул донордан бир марта фойдаланилганда йилига 2,5-3,0 бузоқ, кўп марта фойдаланилганда (йилига 2-5 марта) 6-20 ва ундан ортиқ бузоқ олиш имконини беради. Шу билан бирга, сунъий уруғлантиришдан фойдаланиб, сигирлардан йилига битта, камдан-кам ҳолларда иккита бузоқ олинади.